

FRANZ KAFKANING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Sindorov Lutfulla Kurolovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, f.f.f.d.
(PhD) sindorov2020@gmail.com +99893-3751882*

Davronov Murodjon Abrorovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax
filiali talabasi, dmurodjon870@gmail.com +998941942007*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada XX asr nemis adabiyotining yirik vakili Franz Kafkaning obraz yaratishda tutgan yo'li, "Evrilish" asari misolida obrazlar paydo bo'lishi, ularning boshqa asar obrazlaridan farqi va kelib chiqish muhiti o'rganiladi va tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Franz Kafka, psixologik tahlil, shaxsiy hayot, ramziy obrazlar, jarayon, metamorfoz, oila va ziddiyatlar, izolyatsiya, ruhiy tushkunlik, metamorfoz, ichki ziddiyatlar, absurd elementlar.*

XX asr jahon adabiyotida o'ziga xos uslub yaratgan yozuvchilardan biri Franz Kafka dunyodagi eng g'aroyib va tushunarsiz taqdir egasi hisoblanadi. Uning asarlarida insonning ichki ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi begonalashuv, qo'rquv va yolg'izlik masalalari chuqur badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Kafka ijodida obraz yaratish jarayoni ko'pincha psixologik tahlil, ramziy ma'no va absurd elementlar orqali amalga oshiriladi [2.88]. Yozuvchining eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Evrilish" (The Metamorphosis) asarida bosh qahramon Gregor Zamza obrazi orqali insonning jamiyatdan begonalashuvi va oila munosabatlarining murakkabligi tasvirlangan. Kafka yaratgan badiiy olam keyinchalik adabiyotshunoslikda "kafkaisk" uslub sifatida e'tirof etilgan [1]. Har qanday adib, xoh u yozuvchi bo'lsin yoki shoir uning hayoti va ijodi, ayniqsa, uning atrofidagi muhit o'rganilmasa, uning asarlarini tushunish qiyin. Jumladan, undagi muommolar aynan qanday jihatlar unga asar yaratishga turtki berganini yaxshi anglab yetmoq kerak. Franz Kafka 1883-yil 3-iyulda Praga shahrida tug'ilgan. U nemis tilida ijod qilgan yozuvchi bo'lib, XX asr modernizm adabiyotining muhim vakillaridan biridir [4.315]. Kafka oilasidagi murakkab munosabatlar, ayniqsa, otasi bilan bo'lgan ziddiyatli aloqalar yozuvchining ruhiy dunyosiga kuchli ta'sir ko'rsatgan va u yaratgan asarlarning psixologik mazmuniga asosiy manba bo'lgan. Kafka o'zining bolalik va o'smirlik davrida qattiqqo'l va talabchan otasining ta'siri ostida ulg'aygan. Otasi Hermann Kafka o'g'liga nisbatan juda qat'iy bo'lgan va uning muvaffaqiyatlari yoki ehtiyojlariga yetarlicha e'tibor bermagan. Bu oilaviy vaziyat, ayniqsa otasining shafqatsizligi, Kafkaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirgan, bu esa uning ijodiy faoliyatida o'z aksini topgan. Tadqiqotchilar fikricha, Kafka asarlarida uchraydigan qo'rquv, tushkunlik va begonalashuv motivlari uning shaxsiy hayoti bilan bog'liq. Kafkaning 1919-yilda yozgan "Otaga maktub" asari uning otasi bilan bo'lgan murakkab va ziddiyatli munosabatlarini ochiq ifodalagan. Ushbu maktubda Kafka otasini psixologik hukmronlik qiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi, bu esa uning o'z qadr-qimmatini past baholashiga va ichki ruhiy muammolariga olib kelgan. Kafka bu maktubda o'zining otasi bilan bo'lgan munosabatlarini "ruhiy qiynoqlar" deya ta'riflaydi va uning ijodiga qanday ta'sir ko'rsatganligini

ochib beradi. Bu ichki norozilik va ruhiy azoblar keyinchalik uning badiiy asarlarida ham bevosita ifodalangan. Masalan, uning ko'plab qahramonlari o'zlari uchun qattiqqo'l otaning yoki hukmron shaxsning biror shakli bilan kurashish holatida tasvirlanadi [2.87]. Yozuvchi ijodida insonning jamiyat bilan to'qnashuvi, byurokratik tizimning bosimi va insoniy erkinlik muammolari muhim o'rin egallaydi [1]. Yana bir ajablanarli jihati shuki, Kafka o'zi uchun ko'proq yozgan, deyishadi. U o'z asarlarini yaxshi ko'rmas, ularni chop ettirmas, hatto o'limi oldidan do'sti Maks Brodga o'zining barcha asarlarini yoqib yuborishni vasiyat qilgan. "Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotdan iboratman", - degandi Kafka. U o'z asarlari haqida esa: "Men ularni yaratgan onlarnigina hurmat qilaman, xolos" - degan edi. Kafkaning barcha asarlarida odam muhitning qurboni sifatida tasvirlangan. Uning asarlarini o'qib shunchaki lazzatlanish yoki orom olish mumkin emas. Undagi obrazlar ruhiy holatini tuyish juda og'ir kechadi. Kafka asarlari modern adabiyotining yuksak namunalari sifatida qaraladi [4.315-316]. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglayanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) badiiy asardagi aksidir. Biroq obraz oddiygina aks emas, balki san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va qayta ishlangan aksidir [6.62]. Kafka esa o'sha davr jamiyati, oilasidagi muommolarni umumlashtirib asar yozadi. Go'yo, asarlarining bosh qahramoni uning o'zi va hayotini aks ettiradi. Albatta, bu asarlarda borliqning ko'plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik-badiiy borliqdir [7.61]. Kafka obraz yaratishda bir nechta badiiy usullardan foydalanadi. Asardagi eng asosiy hodisalardan biri Zamzaning hasharotga aylanib qolishidir. Bu uning jamiyatdan begonalashishi, ajralib qolishi va ruhan yolg'izlanishini bildiradi. Shu bilan birga bu holat butun insonning oddiy mehnat quliga aylanishini timsol qiladi. Yana bir majoziy ramz - Gregor yashaydigan xona. Shu xona uning ruhiy qafasi sifatida ko'rsatiladi va Kafka ruhning qamalanganligi, erkinlikdan mahrum bo'lishini anglatadi. Gregorning ota-onasi va singlisi ham ramz sifatida jamiyatni ifodalaydi. Jamiyat manfaatsiz kimsalardan yuz o'girishini ko'rsatadi. Eshik va derazalar ham ramz hisoblanadi. Gregor jim mo'ralaydi, lekin chiqib keta olmaydi. Deraza va eshiklar erkinlikni bildiradi, ammo undan chiqish qiyin [4.389] Kafka qahramonlarning ichki ruhiy holatini chuqur tasvirlaydi. Uning asarlarida qahramonlarning ichki monologlari va ruhiy iztiroblari keng yoritiladi. Masalan, Gregor Zamza obrazida insonning jamiyatdan ajralib qolishi psixologik jihatdan tasvirlangan. Kafka ko'pincha ramziy obrazlardan foydalanadi. Masalan: hasharot -jamiyatda qadrsizlangan inson ramzi, yopiq xona - insonning ruhiy qamog'i, oila - ijtimoiy bosim timsoli [2.89]. Bu ramzlar orqali yozuvchi insonning jamiyatdagi o'rmini badiiy jihatdan ochib beradi. Absurd elementlar - Franz Kafka ijodida absurd muhim badiiy usullardan biri hisoblanadi. Absurd - bu mantiqan tushuntirib bo'lmaydigan, g'ayritabiiy yoki noodatiy holatlarning oddiy hayot kabi tasvirlanishidir. Kafka shu usul orqali insonning jamiyatdagi yolg'izligi va begonalashuvini ko'rsatadi. Asarning eng asosiy absurd elementi - Gregor Zamzaning bir kuni ertalab ulkan hasharotga aylangan holda uyg'onishidir [4.413] Bu hodisa hech qanday sabab yoki izohsiz sodir bo'ladi. Eng qiziq tomoni shundaki, Gregor ham, uning oilasi ham bu voqeani uzoq vaqt tushuntirishga urinmaydi. Gregorning birinchi tashvishi ham o'z holati emas, balki ishga kechikib qolayotganidir. Bu orqali Kafka zamonaviy insonning jamiyatdagi ahvoli qanchalik g'alati va absurd ekanini

ko'rsatadi. Oilaning g'ayritabiiy vaziyatga odatiy munosabati esa Gregor hasharotga aylanganiga qaramay, oila a'zolari bu holatni tezda kundalik hayotning bir qismi sifatida qabul qiladi. Masalan: singlisi unga ovqat olib kiradi, ota-onasi undan uyaladi, keyinchalik esa undan qutulishni istaydi. Bunday munosabat ham absurd element hisoblanadi, chunki insonning bunday o'zgarishi odatda shok yoki izlanishga sabab bo'lishi kerak edi. Uning oilasi fikricha, u shunchaki qandaydir kasallikka chalingan, ertadan sog'ayib, yana ishga borishi kerak edi. Kafka ijodida real hayot bilan fantastik elementlar birlashadi [1]. Masalan, "Evrilish" asarida Gregor Zamzaning hasharotga aylanishi fantastik hodisa bo'lsa ham, u orqali insonning ijtimoiy muammolari ko'rsatiladi. "Evrilish" asarida obrazlar tahliliga qaraydigan bo'lsak: Gregor Zamza - asarning markaziy qahramoni. U oddiy savdo vakili bo'lib, oilasini moddiy jihatdan ta'minlaydi. Bir kuni ertalab u ulkan hasharotga aylangan holda uyg'onadi [3.387]. Bu hodisa orqali yozuvchi insonning jamiyatdagi begonalashuvini tasvirlaydi. Gregor obrazi quyidagi g'oyalarni ifodalaydi: insonning iqtisodiy tizimga qaramligi, oila munosabatlarining shartliligi, jamiyatning insonni qadrlamasligi ifodalangan. Asar davomida Gregor oilasi uchun foydali bo'lgan paytda hurmat qilinadi, ammo u ishlay olmay qolganidan keyin oila a'zolari undan yuz o'giradi. Bu holat inson qadrining ko'pincha moddiy manfaat bilan o'lchanishini ko'rsatadi. Shu sababli Gregor obrazi zamonaviy insonning jamiyatdagi begonalashuvi va ruhiy izolyatsiyasining ramzi sifatida talqin qilinadi [2.88]. Keraksizga aylanish og'rig'i ham Gregor hech qanday foyda keltirmagan paytdan boshlanadi. Gregor, avval oilasining suyanchig'i edi. Qarzlarni u to'lar, ro'zg'or uchun mehnat qilar, bunday olib qaraganda, risoladagidek oila a'zosi edi. Bir kunda, aynan bir kunda u muammoga aylanadi. Oila a'zolari avval undan qo'rqadi, keyin yuz o'giradi, ovqat berishmaydi, bora-bora uning yo'q bo'lishini istay boshlashadi. Siz shunday qilarmidingiz? Eng alanlisi hasharotga aylangan yigit xorlikda vafot etadi va bu voqeadan so'ng oilasi yengil tortgandek bo'ladi. O'sha kuni ular dam olish uchun shaharga chiqishadi [3.388]. Hatto kelajak rejalari haqida xursand holda suhbatlashishadi. Hasharotga aylangan insonning o'limi hech kimni qayg'uga solmaydi. Kafka aynan shu orqali o'quvchiga savol qo'yadi. Inson hayoti va qadri uning qanchalik foyda keltirishi bilan o'lchanadimi? Oilada shartlarsiz, talablarsiz mehr-muhabbat bo'lmaydimi? Kafka ruhingizni silkitadi. Kafka so'z bilan baqirmaydi. U shivirlaydi. Lekin shu shivir - qalbimizda to'fon uyg'otadi. Ushbu asarda tasvirlanayotgan va badiiy idrok etilayotgan narsani farqlash zarur. Chunki bu asarda boshqa hodisalar tasvirlangan, hasharotga aylanish, ishga kechikish, ota-ona munosabatlari, ammo asar tag ma'nosi boshqa bir tushunchani o'quvchiga yetkazmoqchi [6.93]. "Evrilish" aynan shunday asar. Shuning uchun ham bu hikoya hali ko'p o'qiladi, anglanadi va og'riq beradi. Grete Zamza - Gregorning singlisi. Asarning boshida u akasiga yordam beradi. Ammo vaqt o'tishi bilan u ham Gregordan voz kechadi. Bu holat insoniy munosabatlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ko'rsatadi. Bu jarayon xuddi - ko'r inson ko'rishni boshlagan zahoti, avvalo, o'zi bir necha yillar mobaynida foydalanib kelayotgan hassasidan voz kechishiga o'xshab qoladi. Chunki "hassa'dan endi hech qanday naf yo'q. Gregor ham tobora hassaga aylanib borayotgan edi. Ota obrazi - Gregorning otasi qat'iy va hukmron xarakterga ega. Tadqiqotchilar bu obraz yozuvchining otasi bilan bo'lgan murakkab munosabatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [2.87]. Ota obrazi oilaviy hokimiyat va ijtimoiy bosim ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu obraz orqali Kafka insonning jamiyatdagi qat'iy tartib va majburiyatlarga bo'ysunishini ko'rsatadi. Kafka

asarlarning markaziy g'oyalardan biri - begonalashuvdir. Bu g'oya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: insonning jamiyatdan ajralib qolishi, oila ichidagi sovuqlik, byurokratik tizimning bosimi [1]. Kafka qahramonlari ko'pincha tushunarsiz va nazorat qilib bo'lmaydigan tizimlar bilan to'qnash keladi [1].

Franz Kafka jahon adabiyotida badiiy obraz yaratish san'atini yangi bosqichga olib chiqqan yozuvchilardan biridir. Uning asarlarida psixologik chuqurlik, ramziy tasvirlar va absurd elementlar uyg'unlashgan [1]. Kafka yaratgan Gregor Zamza kabi obrazlar insonning jamiyatdagi o'rnini va ruhiy iztiroblarini chuqur ochib beradi [3.390]. Umuman olganda, biz ko'proq Kafkaning do'sti bo'lgan Maks Broddan minnatdor bo'lishimiz kerak. Agar u bo'lmaganida, uning asarlari dunyo yuzini ko'rmagan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Franz Kafka - Biography and Literary Style <https://www.britannica.com/biography/Franz-Kafka> Encyclopaedia Britannica tahririya Encyclopaedia Britannica (onlayn ensiklopediya) Chicago, USA, 2026 (so'nggi yangilanish).
2. Eshmamatov R. F. Kafkaning shaxsiy hayoti - asarlarning psixologik tomonlarini tushunish kaliti sifatida. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot onlayn konferensiyasi. 2023. -B.87-89. <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/52284>.
3. Jumayeva U. "Evrilish" hikoyasidagi ramzlar tahlili. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Ilmiy konferensiya maqolalari to'plami. Toshkent. 2024. -B. 385-389.
4. Matchonov S., Sariyev Sh. "Adabiyot". Toshkent. 2010. -B-315-316.
5. Dr. SMITA MISHRA -Absurdity in Franz Kafka's the Metaphormisis: an analysis Assistant Professor Dept. of Basic Sciences & Humanities, PSIT, Bhauti, Kanpur, Uttar Pradesh, India- Research Journal of English Language and Literature (RJELAL) A Peer Reviewed (Refereed) International Journal Impact Factor 6.8992 (ICI) <http://www.rjelal.com>. - B. 412-415.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. 2004. - 224 b.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo". 2020. - 310 b.